

Foyda keltiradigan zamburug'

// 30.09.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/foyda-keltiradigan-zamburug>



Germaniyaning Biophelion startapi *Aureobasidium pullulans* nomli xamirturushga o'xshash qora zamburug' yordamida plastik chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha yangi texnologiyani taklif qildi. Ushbu zamburug' turli muhit sharoitida yashay oladi va eng muhimi, keng turdagi organik birikmalarni parchalash qobiliyatiga ega.

Qizig'i shundaki, bu zamburug' plastikni shunchaki yo'q qilmaydi, balki uni yangi materiallar ishlab chiqarishga yaroqli qimmatli birikmalarga aylantiradi. Tadqiqotchilar undan xususan, uchta mahsulot ajratib olishdi.

Masalan pullulan — ta'msiz va yeyiladigan polimer bo'lib, oziq-ovqat sanoatida mahsulotlarga hajm va tuzilma berish uchun qo'shimcha sifatida hamda og'iz hidini tarkatuvchi plyonkalar va dorilar uchun vegetarian kapsulalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Poliester esa qadoqlash mayetriallari ishlab chiqarishga to'g'ri keladigan polimer hisobalanadi. Kam ma'lum bo'lgan yuzaga ta'sir qiluvchi molekulani 3D-bosma texnologiyasida va sun'iy yuza faol moddalarga ekologik muqobil sifatida kir yuvish vositalari va maishiy kimyo mahsulotlarida ishlatish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, zamburug' plastik chiqindilar tarkibidagi qoldiq uglerod gazini (CO_2) ham o'zlashtiradi va uni o'sishi uchun energiya manbasi sifatida ishlatadi. Shu tariqa, u uglerod gazining atmosferaga chiqishini oldini oladi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati